

**Jumanov Ruslanbek Bobojonovich**

Xorazm viloyati Urganch Texnologiya Universiteti “Iqtisodiyot” kofedراسi o’qtuvchisi

PhD. **Yaqubov Azizbek G’anibekovich**

Ranch texnologiya universiteti Iqtisodiyot kafedراسi mudiri

Tel : +998974570876

Gmail: [parvonaparvoz@gmail.com](mailto:parvonaparvoz@gmail.com)

[a.yaqubov@utu-ranch.uz](mailto:a.yaqubov@utu-ranch.uz)

---

## **IQTISODIY O’SISH TERMINLARI**


**Anotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat iqtisodiyotidagi o’sishning o’rni va uning muqobilligi bilan bog’liq fikir, muloxazalar hamda rivojlanishi, uning tashkiliy va iqtisodiy terminlari bilan bog’liq asosiy omillar va muammolar keng yoritilgan.

**Kalit so’z:** YaIM, YMM, o’sish, iqtisodiyot, xizmat ko’rsatish, bozor tizimi, tanazzul, texnologiya, kreditlash, mexanizmlar, xalqaro tashkilotlar.

---

### **Kirish.**

O’sish (*iqtisodiyotda*) — mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko’paygan miqdorda takrorlanishidir. Iqtisodiy o’sishni ta’minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko’payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy O’sishni shart qilib qo’yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy O’sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy O’sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o’sish ishlab chiqarishning ilg’or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo’lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy O’sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo’paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.



Iqtisodiy O'sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) asos bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishning muayyan davr mobaynida real YAIM hajmining ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy O'sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YAIM hajmining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot bersada, iqtisodiy O'sishni to'liq aks ettirmaydi. Masalan mamlakat aholisining O'sish sur'ati 3% ni, real YAIM ning O'sish sur'ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YAIM hajmi o'sgan bo'lsada, kishilarning daromadlari o'zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy O'sishni to'laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko'rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YAIMning o'zgarishi qo'llanadi.

Real YAIM hajmining o'zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig'idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM hajmining o'zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YAIM ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o'zaro ta'sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy O'sishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YAIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy O'sishekstensiv o'sish deb ataladi.

Iqtisodiy O'sishning sifat omillari ham mavjud bo'lib, ularga mehnat, kapital va yer (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy O'sish intensiv o'sish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv O'sishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o'sish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy ko'rsatkichlar iqtisodiy O'sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. O'sish sohasida

— bandlikning yukobiy dinamikasi; taqsimot sohasida

— aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko'rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida

— savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi;

iste'mol sohasida iste'molning va noishlab chiqarish jamg'arishning o'sishi shunday ko'rsatkichlarga kiradi. Iqtisodiy o'sishning asosiy ijobiy tomon uning ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmasi o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatishidir.


Yalpi milliy mahsulot (YMM)- ma'lum bir muddat davomida vujudga kelgan (odatta bir yil), mamlakat rezidentlari tomonidan mamlakat ichi yoki tashqarisida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlar

YMM milliy Iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard mahsulot (xizmatlar) ning bozor baholaridagi summasi. Joriy yilda ishlab chiqilgan barcha mahsulotlar sotilmasligi mumkin, ularning bir qismi zaxiralarni to'ldiradi. Ya'ni YMM xajmini hisoblab topishda zaxiralarning xar qanday o'sishi hisobga olinishi zarur, chunki YMM yordamida joriy yildagi barcha mahsulotlar (sotilgan yoki sotilmagan) hisobga olinadi.

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqarish uchun, mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YMM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, xalq xo'jaligining barcha barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisini olinadi.

Yalpi milliy mahsulot (DAROMAD) — (YMM yoki YMD) mamlakatning ma'lum muddat (odatda, oy, kvartal, yil) ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri. YMM davlatning bozor narxlarida ifodalangan barcha birlamchi daromadlari (ularning mamlakat hududida yoki uning tashqarisida ishlab chiqarish omillari tufayli yuzaga kelishidan qat'i nazar jami yig'indisini ko'rsatadi. YMM milliy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida mamlakatlar o'rtasida kapital harakatchanligi darajasi g'oyat yuqori. Natijada bir mamlakat kapitalining qandaydir bir qismidan chet elda foydalaniladi. Ayni paytda esa mamlakatning ba'zi aktivlari (korxonalar, ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar) xorijiy fuqarolar va firmalar (nerezidentlar)ning egaligida bo'ladi. Nerezidentlar o'z mulklaridan olgan daromadlarining bir qismini vatanlariga o'tkazib turishlari natijasida yalpi ichki mahsulot miqdori bilan tegishli mamlakat ixtiyoridagi amaldagi yalpi daromad (YMM) miqdori bir-biriga teng kelmay qoladi. Shu bois YMM hajmini to'g'ri aniqlash uchun yalpi ichki mahsulotga mamlakatga uning chet ellardagi o'z fuqarolari mulkidan tushgan daromadlar bilan mamlakatdan chiqib ketgan chet elliklar daromadlari o'rtasidagi farqni qo'shish kerak. Chet eldagi mulklardan tushgan daromadlar saldosi ijobiy bo'lsa YMM hajmi yalpi ichki mahsulotdan ko'p, aksincha holatda kam bo'ladi



Har bir mamlakat va uning olib borayotgan iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi aholi turmush darajasini yaxshilash, ishlab chiqarish infratuzilmalari faoliyatini takomillashtirish va pirovardida iqtisodiyoti baquvvat bo'lgan jamiyat barpo etishdan iborat. Barqaror rivojlanishga erishish mamlakatdan kuchli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni. iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya yo'nalishlarini kengaytirish va shu kabi qator shartlarni talab qiladi. Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va jamiyat a'zolarining daromadlarini muntazam oshib borishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o'sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiy o'zgarishidir.

Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o'sish bu milliy iqtisodiyotda muayyan davr davomida (odatda bir yil) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishidir. Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishga erishish kafolati sifatida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish tamoyillari, qonunlar va olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlarni ko'zda tutishimiz mumkin.

Iqtisodiy o'sish tushunchasini tahlil qilishda iqtisodiy o'sish omillari va faktorlarini ko'rib chiqish zarur. Iqtisodiy o'sish omillar iqtisodiy o'sish turlariga qarab guruhlanadi. Misol uchun iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv omillari ishlab chiqarishda bevosita qatnashadigan resurslar, ishchi kuchi, xomashyo, asbob-uskunlarning miqdori va sifatiga qarab ajratiladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikkita guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruh omillari iqtisodiyotning miqdoriy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataymiz. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

tabiiy resurslar miqdori va sifati;

ishchi kuchi resurslarining miqdori va sifati;

asosiy kapital (asosiy fondlar) hajmi va sifati;

texnologiyalar va fan - texnika taraqqiyoti.

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi kerak, balki juda samarali ravishda ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham muhim hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi taklif va taqsimlash omillari o'zaro bir- biri bilan bog'liq va bir birini taqozo etadi. Masalan, resurslarning miqdori o'sishi va sifati yaxshilanishi, texnologiyalarning takomillashtirilishi iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lib, bu muammoni tahlil qilishda va o'rganishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Iqtisodiy o'sish 2 usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi:

birinchi usul real YaIM ni bazis davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun qo'llaniladi.

ikkinchi usul real YaIM ni bazis davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanishi darajasini va harakatining sifat o'zgarishlarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va qo'shimcha o'sish sur'atlari bir- biridan farqlanadi:

a) bazis o'sish sur'ati  $Y_i Y_o$

b) zanjirli o'sish sur'ati  $Y_i Y_{i-1}$

Qo'shimcha o'sish sur'atlari qiyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

a) bazis qo'shimcha o'sish sur'ati =  $Y_i - Y_o Y_o$

b) zanjirli qo‘shimcha o'sish sur'ati =  $Y_0 - Y_{i-1} / Y_{i-1}$  bunda,

YO-bazis yildagi real YaIM;

Yi - shu yildagi real YaIM;

Yi-1 - bundan avvalgi yildagi real YaIM

Iqtisodiy o'sishning ekonometrik modellari so'nggi yillarda rivojlanib, takomillashib borayotganligi hechkimga sir emas. Iqtisodiy o'sishni tahlil qilish jarayonida biz tahlil qilayotgan tadqiqotimizni chuqurroq o'rganishimiz va u bilan bog'liq zarur ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan YaIM tahlilini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkichni o'sishi uchun qaysi omillar ta'sir qilishini va ta'sir darajalarining bir-biridan qay darajada farq qilishini va kelgusi davrlardagi prognoz ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

### **Xulosa.**

Yurtimizdagi iqtisodiy o'sishni o'zida aks ettiradigan ko'rsatkichlar Harakatlar strategiyasining muvaffaqiyatini, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida erishilgan yutuklarning amaliy ifodasidir.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash iqtisodiy islohotlarning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar (xususan xorijiy investitsiyalar) hajmini ko'paytirish, eksport hajmini oshirish va uning tarkibini takomillashtirish, iqtisodiyotga solik yukini kamaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini yanada optimallashtirish, bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, banklarning kreditlash salohiyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun omil bo'ladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining tabiiy xususiyatlari, uning mineral va xom ashyo, ishchi kuchi resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi, iqtisodiyotimizning chet el mamlakatlari iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashganligi, jahon pandemiyasi iqtisodiy inqirozining o'z ta'sir kuchini hali yo'qotmaganligini hisobga olgan holda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlovchi yo'llar sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish ishlarini davom ettirish;

Sanoat mahsulotlari orasida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar turini ko'paytirish va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan darajaga yetkazish;

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish .

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yilda qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi qarori.

2. Berkinov.B.B., Mamatova F.X. "Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari". Risola. T."TDIU", 2011.-60 b.

3. Berkinov.B.B., Axmedov U.Q., "Uy xo'jaliklari rivojlanishi oila daromadlarini oshirish istiqbollari".T- va "Fanvatexnologiya", 2013.-144.b
4. Shodiyev T.Sh., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullayeva Sh.. Muminova M.A. Ekonometrika" (o'quv 66 qo'llanma). -T.: TDIU, 2007.-178-bet).
5. Abdullayev a., Umarov N. "Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi" -T.; Moliya, 2001.-92-bet.
6. Shodiyev.X "Ekonometrika fanining predmeti, usullari, vazifalari va asosiy tushunchalari" T:2017 bet.41-bet.
7. B.J.Xakimov, B.B. Alimov, U.A.Xolmirzayev "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" T: "Iqtisod-Moliya"-2013.
8. Z.A.Jumayev, "Makroiqtisodiyot" T:2018. 112-b.
9. Xodjaev R., Maxmudov B., Xadjaev X., Ergashev E, Egamberdiev R. Mikro va makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma-T.: "ILM ZIYO" 2012, 324 b.
10. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 8- 11.
11. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 265-267. <https://doi.org/10.54613/ku.vlil.431>
12. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
13. Мелибаева, Г. (2021). Иқтисодиётни диверсификациялаш шароитида тижорат банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари. Общество и инновации, 2(4/S), 282-291.
14. „Missouri State University Introduces New Degree in IT Service Management“.
15. Toshkent shahar statistika boshqarmasi 2020.yanvar
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 yil 1-son.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 7 martdagi PQ-4231-son Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi 2019 yil 13 avgustdagi PF-5780-son Farmoni.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22 aprel kuni hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi materiallari. <https://iiv.uz/news/xizmat-korsatish-sohasini-rivojlantirish-boyicha-qoshimcha-choralar-belgilandi>.